



AYOL MUALLIF OVOZINING BADIY ADABIYOTDA TALQINI: JEYN
OSTINNING “ANDISHA VA G‘URUR” ROMANI ASOSIDA

Ezozxonova Nasimaxon Esorxonovna
Oriental Universtiteti Tillar-2 kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi bo‘lgan Jeyn Ostinning “Andisha va G‘urur” asarining badiiy tahlili, o‘sha davrdagi ijtimoiy va iqtisodiy muhit ta’siri, ayol yozuvchining bosh qahramonlarni tasvirlashda o‘ziga xos so‘z san’atidan foydalanganligi va voqealar rivojida qahramonlarning ruhiy va ma’naviy olamini to‘liq ochib berganligi bilan jaralib turadi. Shuningdek, ushbu asarda badiiy uslub va mahorat yaqqol ochib berilganligi sababli, bu asar kitobxonlarni voqealar rivojiga qiziqishini tobora kuchaytirib, o‘sha davr muhitiga tushib qolgandek bo‘ladi go‘yo.

Kalit so‘zlar: gender, ayollar roli, ijtimoiy me‘yorlar, yozuvchi uslubi, syujet, patriarxal tizim, badiiy uslub

THE INTERPRETATION OF THE FEMALE AUTHOR’S VOICE IN FICTION:
BASED ON JANE AUSTEN’S “PRIDE AND PREJUDICE”

Annotation: This article presents a literary analysis of the English writer Jane Austen’s *Pride and Prejudice*, highlighting the influence of the social and economic context of the time, as well as the author’s unique artistic expression in portraying the main characters. The study emphasizes how Austen masterfully reveals the spiritual and moral world of her characters throughout the narrative. Furthermore, the novel’s refined style and artistic skill not only sustain the readers’ interest but also immerse them in the atmosphere of the era as if they themselves were part of the events.

Keywords: gender, women’s role, social norms, author’s style, plot, patriarchal system, literary style.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКОГО АВТОРСКОГО ГОЛОСА В
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: НА ОСНОВЕ РОМАНА ДЖЕЙН ОСТИН
«ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ»

Аннотация: В данной статье представлен литературный анализ романа английской писательницы Джейн Остин «Гордость и предубеждение», в котором освещается влияние социального и экономического контекста эпохи, а также уникальное художественное мастерство автора в изображении главных персонажей. В исследовании подчеркивается, как Остин мастерски раскрывает духовный и нравственный мир своих героев на протяжении всего повествования. Кроме того, изысканный стиль и художественное мастерство романа не только поддерживают интерес читателя, но и погружают его в атмосферу той эпохи, словно он сам является участником событий.



Ключевые слова: *гендер, роль женщин, социальные нормы, авторский стиль, сюжет, патриархальная система, художественный стиль.*

Jeyn Ostinning “Andisha va G‘urur” asari ayol yozuvchi tomonidan yozilgan eng ta’sirli asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda XIX-asr boshlaridagi Angliyada ayollarning roli va ijtimoiy me’yorlarni chuqur va teran tanqid qilishi bilan ajralib turadi. Asarning bosh qahramoni Elizabet Bennet misolida ayollik tajribasini ilgari suradi; uning zehn va mustaqilligi, nikoh hamda iqtisodiy qaramlikka oid patriarxal me’yorlarga qarshi turadi. Fajrina (2014), Elizabet Bennetning dialoglarida qo‘llanilgan so‘zlarni tahlil qilishga e’tibor qaratadi va Elizabet ularni chuqurroq ma’no ifodalash, o‘tkir zehni namoyon etish yoki hazil-mutoyiba qilish tuyg‘usini ko‘rsatish maqsadida foydalanishini aytib o‘tadi. Asar tarjimasida ayollar ovozining ta’sir kuchi, ularning qarashlari muhim manba sifatida aks etgan va ayrim joylar qayta talqin qilinib tadqiq etilganligi sababli bu asar ko‘plab tillarga tarjima qilingan, xususan O‘zbek tiliga ham. Shu sababli Jeyn Ostinning ushbu asari tarjimada genderlashtirish va ayol ijodkorlik merosining turli madaniyatlararo uzatilishiga muhim hissa qo‘shadi.

Jeyn Ostinning “Andisha va G‘urur” asari nafaqat badiiy uslubning durdona namunasi sifatida, balki erkaklar hukmronlik qilgan adabiy maydonga ayol ovozining dastlabki kirib kelishi sifatida ham adabiyot tarixida markaziy o‘rin egallaydi. Grandy, Isobel (2023) aytganidek Jeyn Ostin ingliz adabiyotining tan olingan va ajralmas kanonida o‘z o‘rnini egallab, uni mustahkamlab qolgan birinchi ayol yozuvchi sifatida e’tirof etilgan. Ayollik roli asosan oilaviy va turmush doirasi bilan cheklangan davrda yozilgan ushbu roman ayollik tajribasini ilgari suradi hamda gender mafkuralariga qarshi chiqadi. Elizabet Benner obrazi orqali Ostin aqilli va mustaqil qahramonni tasvirlaydi; u mehr yoki hurmatsiz turmush qurishga undovchi ijtimoiy va iqtisodiy bosimlarga qarshi turadi hamda ayollarni mulk va ittifoqlar vositasiga aylantirgan patriarxal me’yorlarni tanqid qiladi. Misol uchun asarda quyidagi parcha keltirilgan:

Darsining birinchi taklifini rad etishi (II jild, 11-bob / 34-bob):

“Boshidan beri sizning odob-axloqingiz, mag‘rurligingiz, manmanligingiz va boshqalarning tuyg‘ulariga bepisandligingiz menda qat’iy norozilik asosini yaratdi. Keyingi voqealar esa bu norozilikni o‘chmas nafratga aylantirdi. Sizni bilganimga bir oy ham bo‘lmasidan, men siz dunyoda hech qachon turmush qurishga ko‘ndirila olmaydigan oxirgi odam ekanligingizni angladim.”

Bu joyda Elizabeth boyluk va mavqega qaramay, hurmatsiz va sevgisiz turmushni rad etadi. Shuning uchun ayollarning mustaqil irodasini nozik va teran ifodalashi hamda gender va sinfiy tuzilmalarni izchil tahlil qilishi tufayli “Andisha va G‘urur” asari feminist adabiyotshunosligining poydevoriy asarlaridan biriga aylangan. Haiyan Gao (2003) aytganidek asar bir tomondan sodda ya’ni sevgi va turmush mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lsa, boshqa tomondan murakkab ya’ni ko‘plab syujet chiziqlari, turfa xarakterlar va insoniy tuyg‘ularning boy manzarasi bilan ajralib turadi. Asarning butun dunyo bo‘ylab barqaror ta’siri va turli madaniyatlarda qayta taqlin qilinishi Jeyn Ostinning ayol muallif siatidagi



yutug'ining ahamiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi. Uning ijodi badiiy adabiyotda nafaqat ayol obrazini shakllantiradi, balki asar janrining imkonaylarini ham kengaytiradi.

Shunday qilib, asarning mohiyatining dolzarbligi hanuz o'z qiymatini yuqotmagan. Bunga sabab jamiyatdagi ayol va erkak munosabati, qarindosh-urug'chilik rishtalari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, hayotda inson o'z o'rnini topishi va shu kabi masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yuqotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fajrina, P.I.H. 2014. An Analysis of Flouting Maxims used by Elizabeth in Austen's *Pride and Prejudice* the Movie. English Department, Faculty of Letters and Humanities
2. Grundy, I. (2023). Austen, Jane. In: *The Palgrave Encyclopedia of Romantic-Era Women's Writing*. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-11945-4_21-1
3. Haiyan Gao "Jane Austin's ideal man in *Pride and Prejudice*" *Theory and Practice in Language Studies*, Vol. 3, No. 2, pp. 384-388, February 2013 2013 ACADEMY PUBLISHER Manufactured in Finland. doi:10.4304/tpls.3.2.384-388
4. Jeyn Ostin "Andisha va g'urur", *Yangi asr avlodi*, 2014